



BUYUK MUTAFAKKIR, G'AZAL MULKINING SULTONI, DAVLAT ARBOBI –
ALISHER NAVOIY

Nilufar Narzilloyeva To'lqin qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

“Xorijiy til va adabiyoti” fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Alisher Navoiy xalqimiz ma'naviy dunyosining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatib kelgan buyuk siymolardan biridir. Istiqlol yillarida mumtoz adabiy me'rosimiz, xususan, Alisher Navoiy ijodiga munosabat tubdan yangilandi. Endilikda esa ulug' shoir adabiy merosini chuqurroq tadbiq etish, u ilgari surgan g'oyalarning falsafiy asoslarini teranroq anglash alohida e'tiborga olinmoqda. Ushbu maqola ham o'zbek adabiyotining asoschisi, ulug' mutafakkir, yetuk shoir Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Maqolada Navoiy yashagan davr, shoirning hayoti va ijodiy faoliyati, lirik merosi tahlil etiladi, uning “Xamsa” taraqqiyotidagi roli ko'rsatiladi. Maqolada ijodkorning turkiy tildagi adabiyot takomili va rivojidadagi o'rni xususida atroflicha fikr-mulohaza bildiriladi.

Kalit so'zlar: Shoir, g'azal mulkining sultoni, mutafakkir, adabiyot, g'azal, bayt, fard, turkiy, forsiy, taxallus, “Xamsa”, doston, arabiy, ruboiy, ishq talqini, qahramonlik, shoir tabiati, she'r dunyosi.

“Agar bu zotni avliyo desak, u – avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak – mutafakkirlarning mutafakiri, shoir desak – shoirlarning sultonidir. Inson qalbining quvonchu- qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi...”

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov

KIRISH:

Alisher Navoiy buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri, o'zbek adabiy tilining asoschisidir. Alisher Navoiy nafaqat o'zbek, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti, jahon xalqlari adabiyoti tarixidagi eng noyob hodisalar silsilasiga mansub bo'lgan buyuk shaxsdir. U qoldirgan merosning soni va hajmigagina emas, balki ularning mazmun va yuksak badiiyatiga ko'ra ham tengsiz adibdir. Navoiy adabiyotshunos sifatida o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib xizmat qiladigan ko'plab ilmiy asarlar muallifidir. U yirik va hassos tilshunos olim. Shoir butun turkiy adabiyotda eng katta lirik va epik merosga ega qalamkash hisoblanadi.

ASOSIY QISM:

Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher 1441- yilning 9-fevralida Xuroson o'lkasining poytaxti Hirotda tavallud topgan. Bu shahar hozirda Afg'onistonning markaziy shaharlaridan biri hisoblanadi. Navoiy bolaligidan ma'rifatli oila muhitida tarbiya topgan. Ota tomonidan bobosi Amir Temurning Umar Shayx ismli o'g'li bilan ko'kaldosh (emikdosh) bo'lib, keyinchalik Umar Shayx va Shohruxning xizmatida bo'lgan. Otasi G'iyosiddin Muhammad (uni “ G'iyosiddin kichkina” ham der edilar) temuriylarga yaqin amaldorlardan bo'lib, o'z davrining obro'li va ma'rifatli kishilaridan sanalgan. Onasi Qobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi bo'lgan. Navoiy



oilada uchinchi yoki to'rtinchi farzand bo'lib, u temuriyzodalar, xususan, bo'lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan. To'rt yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she'rlarni o'qib, yod ola boshlagan. O'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan. Navoiy juda kichik yoshlaridan she'r va musiqaga havas qo'ygan, olim-u shoirlar davrasida ulg'aygan. Kichik maktab yoshida fors shoiri Fariddin Attorning kattalar ham tushunishi qiyin bo'lgan "Mantiq ut-tayr" dostonini fors tilida o'qib ham uqib, yod olgan edi. 1447-yil mamlakat shohi Shohrux vafot etgach, taxtga davog'arlar orasida o'zaro kurash boshlanadi. Navoiy va uning oilasi bu notinchlikdan yiroq bo'lish maqsadida Iroqqa ko'chishishadi. Taft shahrida Alisher mashhur "Zafarnoma" tarixiy asarining muallifi, shoir Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Bu uchrashuv bo'lajak shoirga yorqin iz qoldiradi. Navoiy hirotida qolib o'qishini davom ettiradi. Oila muhiti bolaligidayoq unga zo'r havas tug'dirgan edi. Tog'alari Mirsaid-Kobuliy va Muhammad Ali-G'aribiy yetuk shoir edilar. Navoiylarning uyida shoirlar tez-tez to'planib, mushoira qilishar, adabiyot va san'at haqida suhbatlashar edilar. Alisher o'n-o'n ikki yoshlaridan she'r yoza boshlagan. Tarixchi Xondamirning yozishicha, yosh shoirning iste'dodidan mamnun bo'lgan Mavlono Lutfiy, uning:

"Orazin yopqoch, ko'zumdun sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh"

matla'li g'azalini tinglab: "Agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki mung forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashtirardim...." degan. Alisher Navoiy o'n besh yoshida shoir sifatida keng tanilgan. Turkiy she'rlariga "Navoiy", forsiy she'rlarida "Foniy" taxallusini qo'ygan. "Navoiy" - "navo", "kuy" so'zidan olingan, "Foniy" esa forscha "vaqtincha" ma'nosini beradi. Alisher Navoiy o'n uch-o'n to'rt yoshlarida otasi hayotdan ko'z yumadi. Uni Abulqosim Bobur o'z tarbiyasiga oladi, katta badiiy iste'dodi uchun g'oyat e'zozlaydi. 1469 - yil temuriy Husayn Boyqaro Hiroti egallaydi va Xuroson hukmdori bo'ladi. Shu vaqtdan e'tiboran, Navoiy hayotining yangi bosqichi boshlanadi. U mamlakatning siyosiy hayotida faol ishtirok etadi. Shu yili Xuroson hukmdori Navoiyni davlat muhrdori etib tayinlaydi, keyinchalik vazir lavozimiga ko'tarishadi. Egallagan mansabi orqali Navoiy mamlakatning ma'daniy va ilmiy salohiyatini oshirishda bir turtki bo'ladi.

Alisher Navoiy ijodi ulkan. Olti dostonining hajmi 60000ga yaqin misrani tashkil etadi. 1470- yillarning oxirida Alisher Navoiy o'zining o'zbek tilida yozilgan she'rlaridan iborat ilk devoni - "Badoe' ul- bidoya"ni tuzdi. Mazkur devonda 777 g'azal, 85 ruboiy, 52 muammo, 46 qit'a, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lug'z, 3 mustazod, 5 muxammas, 3 tarje'band, 2 musaddas bo'lib, bunday mukammal devonni tuzish Navoiygacha kamdan-kan turk shoirlariga nasib bo'lgan. Alisher Navoiy mansub adabiy hayotda she'riy janrlardan g'azal, qasida, ayniqsa muammo yozishga qiziqishi kuchli bo'lgan. Alisher Navoiy forsiy devoniga 373 muammo kiritgan. Shunday adabiy mayllar tufayli 1485- yil muammo yozish qoidalari haqida maxsus "Mufradot" asarini yaratdi. 1483-1485-yillar Navoiy o' ichiga besh dostonni olgan "Xamsa" asarini yaratgan. Bular: "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ayi sayyor", "Saddi Iskandariy". Navoiyning "Xamsa"si mazkur janrda yaratilgan turkiy tildagi birinchi asar hisoblanadi. U- turkiy tilde ham bu ko'lamdagi asarlar yaratilishi mumkinligini isbotlab bergan. Navoiy musulmon Sharqining deyarli



barcha janrlarida o'z qalamini sinab ko'radi va o'z ovozi, o'z uslubi borligini ko'rsata oladi. Sharq adabiyotida "Layli va Majnun" mavzusida 120 dan ziyod doston yaratilgan. Navoiy ham shaxsiy yondashuvi asosida shu mavzuda doston yaratadi. Dostonda Layli va Majnun o'rtasidagi sevgi bayon qilinadi. O'zining so'fiylik qarashlarini Navoiy "Farhod va Shirin" hamda "Hayrat ul-abror" dostonlarida ifodalagan. Uning dostonlarida so'fiylik mavzusi umumfalsafiy darajada ko'tarilgan. Mazkur dostonlarda bir vaqtning o'zida shoirning insonparvarlik dunyoqarashlari orqali dunyoning dolzarb muammolari qo'yiladi. "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlarida hukmdor bilan bog'liq muammolar yetakchi o'ringa chiqadi. Navoiy o'z she'riyati orqali o'zbek (chig'atoy) adabiyotini yangi darajaga olib chiqdi. Navoiyning nazmi mavzusining kengligi hamda janrining xilma-xilligi bo'yicha undan oldingi o'zbek adabiyotini ortda qoldirdi. U nazmda dostonlardagi dunyoviy va diniy so'fiylikning dolzarb masalalarini ifodaladi. Navoiyning diniy asarlari ham mavjud: "Arbain", "Munojot". So'fiy prozaik asari "Nasoyim ul-muhabbat"da 750 ta so'fiy shayxlar haqida ma'lumot keltirilgan. Navoiyning ilmiy asarlari qatoriga fors va turkiy tillar qiyosi keltirilgan asari "Muhokamat ul-lug'otayn"; aruz nazariyasiga oid "Mezon ul-avzan"; muammo janrida yozilgan "Mufradot" asarini keltirsak bo'ladi. Bundan tashqari u tarixiy mavzularda ham risolalar yaratgan: "Tarixi mulki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo". Badiiy maktublarini "Munshoot" to'plamiga jamlagan. Uning shoh asarlari Abdurahmon Jomiy haqida "Xamsat al-mutaxayyirin", "Holati Sayyid Hasan Ardasher", "Holati Pahlavon Muhammad"lardan iboratdir. Alisher Navoiyning so'nggi asari "Mahbub ul-qulub"dir. Unda shoirning so'nggi ijtimoiy va siyosiy qarashlari yoritilgan.

Alisher Navoiy butun hayoti davomida adabiy asarlarni siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansabga ega shaxs bo'la turib, u mamlakat hayotining ijtimoiy – iqtisodiy takomillashishiga katta hissa qo'shgan. Ko'rib turganimizdek, Navoiy merosi mavzu va janrlari bo'yicha turlicidir. Uning asarlari XV asrdan hozirgi kungacha o'zbek adabiyoti rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda. Asrlar davomida Navoiyning asarlari taqlid va ilhom manbayi bo'lib kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – T. Fan, 1986-2003
- 2 Xondamir G'iyosiddin. Makorim ul-axloq. – T. Badiiy adabiyot, 1967- 135b.
- 3 www.Arboblar.uz -2022 Alisher Navoiy
- 4 <https://saviya.uz> – 2017 Adabiyotshunoslik
- 5 www.Hikmatlar.uz – Oz-oz o'rganib dono bo'lur.
- 6 <https://vaqt.ucoz.com> – Navoiy
- 7 Jomiy . Bahrison / Forsiydan Sh. Shoahmedov tarjimasini. - T. Yozuvchi, 1997
- 8 Haqqulov I. Navoiyga qaytish. – T. Fan, 2007